

MASOFAVIY TA'LIMNING SAMARADORLIGI

Xamidov Nodirbek

Andijon davlat Chet tillar instituti

Ingiliz tili nazariy aspektlar kafedrası o'qituvchi

Rozziqova Mohichehra

Andijon davlat Chet tillar instituti

112-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'limning zamonaviy ta'lim tizimidagi òrni va samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada masofaviy ta'limning moslashuvchanlik, xarajatlarning kamayishi, individual yondashuv kabi afzalliklari hamda jonli muloqotning yetishmasligi, texnik muammolar va òzini nazorat qilish qiyinchiliklari kabi kamchiliklari kòrib chiqilgan. Shuningdek interaktiv ta'lim usullarini joriy etish, òqituvchilarni maxsus tayyorlash, ta'lim kontentini optimallashtirish va nazorat tizimini takomillashtirish orqali masofaviy ta'limning samaradorligini oshirish yòllari taklif etilgan. Maqola masofaviy ta'limning kelajakdagi istiqbollari va an'anaviy ta'lim bilan uyğunlashtirib qòllash zarurligi tòğrisidagi xulosalar bilan yakunlangan.

Kalit sòzlar: masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil òqish, vaqt tejash, iqtisodiy samaradorlik, ta'limning ommaviylashuvi.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и эффективность дистанционного обучения в современности дистанционного обучения, как гибкость, снижение затрат, индивидуальный подход, а также недостатки, такие как отсутствие живого общения через внедрение интерактивных методов обучения, подготовку преподавателей, оптимизацию учебного контента и совершенствование системы контроля. Статья завершается выводами о перспективах дистанционного обучения на качество образования, изменение взаимоотношений между преподавателем и студентом, а также

взаимоотношений между преподавателем и студентом, а также возможности международной интеграции.

Ключевые слова: *дистанционное обучение, онлайн-обучение, информационнокоммуникационные технологии, самостоятельное обучение, экономия времени, экономическая эффективность, популяризация образования.*

Abstract: *This article analysis the effectiveness of distance learning, it's advantages and limitations. The research examines issues of improving distance learning methodologies based on modern information and communication technologies. The article highlights the impact of distance learning on education quality, changes in teacher student relationships, and opportunities for interdisciplinary integration.*

Key words: *distance learning, online learning, information and communication technologies, independent learning, time saving, economic efficiency, popularization of education.*

Kirish

Masofaviy ta'lim-bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'quvchi va o'qituvchi fazoviy ajralgab holda masofadan turib o'qish jarayonidir. Bu ta'lim shakli o'quvchilarga mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masofaviy ta'limda istalgan joyda ta'lim olishi mumkin. Bu ayniqsa ish bilan band bo'lganlar, uzoq hududlarda yashovchilar va sog'lig'i cheklanganlar uchun muhimdir. Vaqt va mablag' tejashda esa o'quv markazlarga borish-kelish; transport va boshqa xarajatlar kamayadi. O'quvchilar o'zlari uchun quay rejada o'qib, o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'qishga qiziqishni oshiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Masofaviy ta'lim orqali ta'lim olish darajasi oshadi, oliy ta'limga kirish imkoniyati oshadi [1.35].

Masofaviy ta'limning samaradorligining tahlil va metodlari. Masofaviy ta'lim samaradorligi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, pedagogik texnologiyalar, o'quv mahsulotlarining sifati va teskari aloqa sifatiga

boʻgʻliq. Masofaviy ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasida faol va interfaol o'qitish usullari orqali pedagogik hamkorlik tashkil etiladi. Bu o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi, lekin mustaqil ish nazorati va o'zaro muloqotdagi kamchiliklar ta'lim sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Masofaviy ta'limda video, animatsiyalar, virtual ob'ektlar va interfaol taqdimot usullari qo'llaniladi, bu o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masofaviy ta'limda quyidagi usullar keng qo'llaniladi:

Keysli o'qitish(mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar va t'yutor nazorati)

Televizorda o'qitish(global tarmoqlar orqali materiallar taqdimoti)[3.385].

Masofaviy ta'lim iqtisodiy jihatdan samarali, o'qitish uchun an'anaviy jihozlar samarali, o'qitish uchun talab etiladi, lekin internetga doimiy kirish texnik jihozlar zarur. Shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasida maqsadli o'zaro ta'lim tizimi yetishmasligi, o'quv jarayonining individuallashtirilmasligi kabi kamchiliklar mavjud. Masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish uchun interfaol pedagogik usullarni qo'llash, sifatli o'quv materiallarni tayyorlash, o'qituvchi- talaba o'rtasida faol aloqa va teskari aloqani ta'minlashga zarur.

Masofaviy ta'limda samaradorlikni oshirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va elektron ta'lim resurslarida keng foydalanish zarur. Bu o'quv jarayonini interfaol va qiziqarli qiladi hamda talabalarni ijodiy rivojlantirish imkonini beradi. Aralash ta'lim masofaviy va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirib, o'qish jarayonida moslashuvchanlikni ta'minlaydi, o'quvchilarga o'zlashtirish tempini belgilash, imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchilarning texnologiyalarga tayyorligi, o'qituvchilarning malakasi va sifatli o'quv materiallarni muhim rol o'ynaydi. Elektron ta'lim resurslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorlikni oshiradi, lekin bu jarayonda o'qituvchi va talaba o'rtasida faol pedagogik hamkorlikni ta'minlash zarur.

ADABIYOTLAR RÒYXATI

1. Charos Raxmidinovna Choriyeva, Muslima Mahmudovna Barova, "Masofaviy ta'limning samaradorligi" foydalari va qiyinchiliklari (2025)
- 2 . Polatov Sarvar Mustafoyevich." Masofaviy ta'lim asosidagi o'qitishning afzallik va kamchiliklari" (2023)
3. "Masofaviy ta'limning afzaliklari va qulayliklari" uzummarkaz maqolasi.
4. "Masofaviy ta'limning kelib chiqish tarixi" maqolasi, Cyber-Leninka.